



Sarboz Saparov

O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti 1-bosqich tayanch-doktoranti
e-mail: saparovsarboz437@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14288317>

KIDARIYLARNING KO‘CHISH SABABLARI VA YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Kidariylarning migratsiyalari va ularning Markaziy Osiyo, Hindiston, va Eronga bo‘lgan ta’siri ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot asosan iqlim o‘zgarishlari, harbiy va siyosiy bosimlar, savdo yo‘llarini nazorat qilish, shuningdek, ko‘chmanchi xalqlarning harakatlari va ularning yangi hududlarga bo‘lgan ta’siri kabi omillar bilan bog‘liq. Kidariylarning migratsiyasi Markaziy Osiyo tarixidagi madaniy va siyosiy o‘zgarishlarni tushunishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: Kidariylar, migratsiya, Markaziy Osiyo, iqlim o‘zgarishi, savdo yo‘llari, ko‘chmanchi xalqlar, Kushonlar, Eftaliylar, Hunlar, geosiyosiy ta’sir.

Kirish. Kidariylar – IV asr oxiri va V asr boshlarida Markaziy Osyoning katta qismini boshqargan Kushonlarning avlodи – mintaqaning geosiyosiy manzarasini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Ularning Buyuk Dasht hududlaridan Markaziy Osiyo, Shimoliy Hindiston, Baqtriya va Eron Shimoliy-Sharqiy qismining ayrim qismlariga bo‘lgan migratsiyalari tarixiy jihatdan katta qiziqish uyg‘otadi. Tadqiqotchilar ularning migratsiya sabablari va qaysi yo‘nalishlardan o‘tganligi haqida turli nazariyalarni ilgari surishgan bo‘lib, bu nazariyalar ularning harakatlanish

motivlarini tushunishga yordam beradi. Ushbu migratsiyalarni o‘rganish ko‘chmanchi xalqlar zabit etishlari va ular ta’sir ko‘rsatgan hududlarda sodir bo‘lgan madaniy va siyosiy o‘zgarishlar kabi kengroq tendensiyalarni yoritadi.

Kidariylar – Hunlarning bir bo‘lagi bo‘lib, ba’zi hollarda Eftallar konfederatsiyasi bilan bog‘lanadi [9. 68-71]. Boshqa ko‘pchilik David MacDowall,[7. 85-87] Gerard Fussman [6. 123-127], Nikola Di Cosmo [4] kabi olimlarning qarashlariga ko‘ra Kushonlarning davomchisi bo‘lishi mumkin. Han-shuga ko‘ra, Hunlar An’-hsı (Arshakiylar davlati, Eron) ning sharqiga 49 kunlik masofada, unga juda o‘xhash va bir urkachli tuyalar yetishtiriladigan Ta Yuechjilar hududini bosib olgan Yuechjilar aslida bir vaqtlar Tun-Huang (Gansu, Dunhuang) va Ch’i-lien o‘rtasida yashagan ko‘chmanchilardir. Bu ikkinchi hudud Tyan-shan (Tangritog‘ tog‘lari) bo‘lishi mumkin. Ular Hun Shan-yusi Mao-tun/Mo-tun (Bagatur?, miloddan avvalgi 209-174-yillar) va manbalarda Lao-shang nomi bilan keltirilgan o‘g‘lining (174-161) bir qator hujumlariga duch kelganlar. Bu hujumlar Mao-tun hukmronligining dastlabki va so‘nggi yillari, hamda o‘g‘li Lao-shangning hukmronligining dastlabki yillarida sodir bo‘lgan. U (Lao-shang) Yuechji podshosini o‘ldirib, “kallasidan sharob kosa” qilgan. Shundan so‘ng Yuechjilar olisga, Farg‘onaning (Ta Yuan) narigi tomoniga ko‘chib ketishgan va g‘arbga siljib Ta-Hsia (Baqtriya)ga hujum qilib, uni egallahsgan. Boshqa Yuechji jamoalari, ya’ni Kichik Yuechjilar shimoliy-sharqiy Tibetning tog‘li qirralariga boshpana topganlar [11. 59]. Aynan man shu Kichik Yuechjilar Hunlar bilan birga G‘arbga ko‘chishlari davomida Sirdaryo bo‘ylari orqali hozirgi Orol dengizga kelib qolib shunda janubga qarab kelib joylashganlar. Tadqiqotlarni sinchkovlik bilan qaraydigan bo‘lsak, ikkinchi faraz haqiqatga yaqinroq bo‘lishi mumkin. Ularning nomi ularni Markaziy Osiyo bo‘ylab katta hududlarni egallagan yetakchisi Kidara nomidan kelib chiqqan. IV asr oxiriga kelib, ular Baqtriya va Gandhara mintaqalarini o‘z nazorati ostiga olib, Kushon imperiyasi qoldiqlari ustida kuchlarini mustahkamladilar. Ushbu tarixiy davr, ayniqsa Sosoniylar va Gupta imperiyalarining zaiflashuvi bilan belgilangan bo‘lib, Kidariylar

kabi ko‘chmanchi guruhlarga katta hududlarda o‘z ta’ sirini o‘tkazish uchun imkoniyat yaratdi.

Kidariylar ko‘chishlarining sabablari:

- Kidariylar migratsiyasi bo‘yicha eng keng muhokama qilingan nazariyalardan biri iqlim va atrof-muhit omillarining roli bilan bog‘liq. Xususan, IV asr davomida yuz bergan iqlim o‘zgarishlari Markaziy Osiyodagi ko‘chmanchi chorvador jamiyatlarga, jumladan Kidariylarga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelgan atrof-muhit qiyinchiliklari ko‘plab ko‘chmanchi guruhlar, shu jumladan Kidariylarni o‘z asl hududlaridan ko‘chib, yanada qulay sharoitlarni izlashga majbur qilgan bo‘lishi mumkin. Ushbu nazariya kengroq nuqtai nazardan qaralganda, atrof-muhit qiyinchiliklari katta miqyosdagi inson migratsiyalarini qanday qilib rag‘batlantirishi va geosiyosiy manzarani qayta shakllantirishi mumkinligini tushuntiradi.

- IV asrda Markaziy Osiyodagi Hunlar dunyosi nihoyatda dinamik bo‘lib, turli ko‘chmanchi guruhlar ustunlik uchun raqobat qildi. Kidariylar migratsiyasi boshqa dasht xalqlarining, masalan, Alxon Hunlari yoki Oq Hunlar (Heftalitlar) tomonidan bosim o‘tkazilishi natijasida yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin, chunki ushbu guruhlar ayni paytda o‘z hududlarini kengaytirayotgan edi. Bundan tashqari, Hun konfederatsiyalari ichidagi ichki nizolar ham bu ko‘chishga sabab bo‘lishi mumkin, chunki kuchsizroq fraksiyalar qudratli raqiblardan qo‘chib, yangi hududlarni yoki boshpana izlagan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

- Paleoekologik ma’lumotlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, IV asrda O‘rta Osiyo dashtlari kuchaygan qurg‘oqlashuv davrini boshdan kechirgan, natijada uzoq muddatli qurg‘oqchiliklar mintaqaning keng hududlariga ta’sir ko‘rsatgan. Kidariylar kabi ko‘chmanchi jamiyatlar uchun, o‘z chorvadorlik xo‘jaliklariga katta darajada bog‘liq bo‘lgan sharoitda, bu atrof-muhit o‘zgarishlari jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. Chorva mollariga faqat oziqlanish uchun emas, balki jun, teri va savdo mahsulotlari kabi tovarlar uchun ham tayanar edilar.

Qurg‘oqchilik tufayli serhosil yaylovlar kamayishi ularning iqtisodiy asosiga zarar yetkazib, yangi suv va o‘tloqlarga ega hududlarni izlashni zarur qilgan. Ushbu davrdagi Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishlari haqidagi tadqiqotlar bu gipotezani qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, Markaziy Osiyo ko‘llaridan olingan cho‘kindi yadro ma’lumotlari eramizning III va V asrlari orasida cho‘llashuvning ortganligini ko‘rsatadi, bu esa Kidariylar kabi ko‘chmanchi guruhlar ustidan migratsion bosimni oshirgan bo‘lishi mumkin [12. 102-112].

- Atrof-muhitdagi qiyinchiliklar ko‘pincha ko‘chmanchi guruhlar o‘rtasida cheklangan resurslar uchun raqobatni kuchaytiradi. Qurg‘oqchilik paytlarida qabilalar va urug‘lar qolgan suv manbalari, yaylovlar va savdo yo‘llari uchun kurashishga majbur bo‘ladilar. Markaziy Osiyodagi iqlimning qurg‘oqchilga aylanishi turli ko‘chmanchi guruhlar orasidagi mayjud ziddiyatlarni kuchaytirishi mumkin edi, bu esa zaifroq fraksiyalarga yangi hududlar izlash uchun bosim o‘tkazgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Atrof-muhitdagi bu bosim ularning ko‘chish qarorini tezlashtirgan bo‘lsa kerak, bu nafaqat yaxshi yerlarni qo‘lga kiritish, balki kamayib borayotgan resurslar ustidagi ziddiyatlardan qochish uchun ham zarur bo‘lgan. Yaylovlar uchun ko‘chmanchi guruhlar o‘rtasidagi raqobat juda keskin bo‘lgan, chunki qurg‘oqchilik bu yerkarning mahsuldorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan va qabilalarni yashash uchun muqobil hududlar izlashga majbur qilgan [13. 33-45].

- Ushbu ekologik buzilish iqtisodiy imkoniyatlardagi kengroq o‘zgarishlarga ham ta’sir ko‘rsatdi. Avval unumdor bo‘lgan mintaqalar savdo va qishloq xo‘jaligi uchun kamroq yaroqli bo‘lib qolgan sari, Kidariylar serhosil va iqtisodiy jihatdan istiqbolli hududlarni egallahsga intilgan bo‘lishlari mumkin. Bu hududlarni nazorat qilish ularga nafaqat boylik manbalarini yaratish, balki Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdoda vositachi sifatida o‘z pozitsiyasini mustahkamlash imkonini bergen bo‘lardi [8. 47-65].

- Iqlimi omillarning ko‘chmanchilar ko‘chishlariga ta’siri faqat Kidariylar bilan cheklanmaydi. Tarix davomida boshqa ko‘chmanchi guruhlarda ham shunga

o‘xshash tendensiyalar kuzatilgan. Masalan, miloddan avvalgi II asrda Hunlarning migratsiyasi va IV va V asrlarda Hunlarning Evropaga ko‘chishi ham iqlimi bosimlar, xususan, yog‘ingarchilik va yaylovlar mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu o‘xshashliklar Markaziy Osiyoda ko‘chmanchi jamiyatlarning harakatlanishida iqlim o‘zgarishlarining muhim o‘rin tutganligini ta’kidlaydi va Kidariylar migratsiyasiga atrof-muhit omillari katta ta’sir ko‘rsatganligini isbotlaydi. Xususan, XIII asrda yashagan Mo‘g‘ullar imperiyasi haqidagi tarixiy manbalar ham atrof-muhit qiyinchiliklariga o‘xshash javob qaytarganliklarini ko‘rsatadi. Mo‘g‘ul rahbarlari qattiq qish yoki qurg‘oqchilik davrlaridan qochish uchun aholilarini ko‘chirishga intilganlar va yaylovlari yaxshi bo‘lgan hududlarni izlaganlar. Kidariylar ham shunga o‘xshash strategiyani qo‘llagan bo‘lishi mumkin, Baqtriya va Gandhara kabi resurslari barqarorroq bo‘lgan janubiy hududlarga ko‘chib, iqtisodiyotlarini saqlab qolish uchun yanada ishonchli manbalarni topishga intilganlar [2. 75-142].

- Kidariylarni o‘z vatani bo‘lmish yerlardan haydab chiqargan iqlimiyo‘zgarishlar ularning bosib kirgan hududlardagi o‘troq aholiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘chmanchi guruhlar ko‘pincha o‘z yerlardagi ekologik buzilishlar tufayli harakatlanib, o‘troq jamiyatlarning qishloq xo‘jaligi va iqtisodiy barqarorligini jiddiy ravishda buzgan. Kidariylar Baqtriya va Gandhara kabi serhosil va o‘troq hududlarga kirib kelganlarida, mahalliy aholining ko‘chirilishi va ko‘chmanchilarning yangi hududlarga kirib kelishi natijasida zanjirli migratsiyalar va ziddiyatlar yuzaga kelgan. Ushbu hududlardagi o‘troq aholi ko‘chmanchilar istilosini natijasida paydo bo‘lgan yangi siyosiy voqeliklarga moslashishga majbur bo‘lib, qishloq xo‘jaligi amaliyotlari va savdo tarmoqlarida o‘zgarishlarga duch kelgan. Kidariylar kabi ko‘chmanchilar ko‘chib, mahalliy hukmdorlarni siqib chiqargan sari, yangi sulolaviy tartiblar yuzaga keldi va o‘sha davrning siyosiy va iqtisodiy tartibi qayta shakllandı. Kidariylar migratsiyasi ko‘chmanchi va o‘troq jamiyatlarda katta miqyosdagi ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarga olib kelgan iqlimi omillar qanday qilib jamiyatlarni o‘zgartira olishining yorqin misoli bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari boshqa ko‘chmanchilarning ham hujumlari ma’lum darajada ko‘chishga sabab bo‘lgan. IV asr oxiri va V asr boshlarida Buyuk Dasht va unga tutash hududlar katta dinamik va raqobatbardosh muhit bo‘lib, turli ko‘chmanchi konfederatsiyalar kuch va hududlar uchun kurash olib borardi. Natijada, Kidariylar nafaqat iqlimiylar va iqtisodiy omillarga javob berishlari kerak edi, balki harbiy va siyosiy bosimlarga ham qarshi turishga majbur edilar. Ko‘chmanchi qabilalar o‘rtasidagi kuch muvozanatining doimiy o‘zgarishi, shuningdek, bu qabilalar bilan o‘troq imperiyalar o‘rtasidagi kurashlar, Kidariylarning yangi imkoniyatlar va xavfsizroq hududlarni izlash uchun migratsiya qilish qaroriga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Kidariylar Hunlar konfederatsiyasining bir qismi edi, bu turli ko‘chmanchi qabilalarni birlashtirgan, ammo ko‘pincha parchalanib ketgan guruh bo‘lib, ular umumiylardan madaniy va siyosiy asoslarga ega edi. Ko‘chmanchi guruuhlar o‘rtasidagi nizolar faqat tashqi bo‘lmagan, balki ichki bo‘lgan. Kidariylar kabi ko‘chmanchi jamiyatlarning siyosiy tuzilmalari ko‘pincha qabila ittifoqlari va konfederatsiyalarga asoslangan bo‘lib, ular barqaror bo‘lmagan. Ushbu konfederatsiyalardagi yetakchilik tez-tez o‘zgarib turishi, ichki parchalanish va fuqarolik nizolariga olib kelishi mumkin edi. Agar yetakchi yetarlicha resurs yoki harbiy g‘alabalar qo‘lga kirta olmasa, uning hokimiyati tanqid ostiga olinishi va guruhning parchalanishiga olib kelishi mumkin edi [12. 102-112].

Kidariylarning Buyuk Dashtlardan (hozirgi Qozog‘iston va Janubiy Sibir hududlari) Markaziy Osiyo va Hindiston tomon bo‘lgan migratsiyasi qadimiy ko‘chmanchi xalqlar harakati uchun muhim voqealardan biri hisoblanadi. IV-V asrlarda Kidariylar o‘zlarining eski hududlarini tark etib, Baqtriya, Gandhara, Sog‘diyona va Hindistonning shimoliy hududlariga ko‘chib o‘tganlar. Ularning migratsiyasi qator sabablar va sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular asosan strategik, siyosiy va iqtisodiy omillar bilan belgilanadi. Ularning harakat yo‘nalishlari esa olimlar tomonidan turli nuqtai nazar bilan o‘rganilgan.

Kidariylar Buyuk Dasht hududlaridan birinchi navbatda Markaziy Osiyo tomon, xususan, Sog‘diyona va Baqtriya hududlariga ko‘chib o‘tganlar. Markaziy

Osiyo ular uchun muhim savdo va siyosiy markazlar bo‘lib, bu hududlarni nazorat qilish orqali ular o‘z iqtisodiy va harbiy qudratlarini mustahkamlashni maqsad qilganlar. Kidariylar dastlab Sirdaryo va Orolbo‘yi hududlariga undan so‘ng janubga Xorazm va janubi-sharqqa qarab Baqtriya (hozirgi Afg‘oniston shimoli va Tojikiston janubi) hududiga kirdilar. Baqtriya qadimdan savdo yo‘llarining chorrahasida joylashgan bo‘lib, Buyuk Ipak Yo‘lining muhim qismi hisoblangan. Ular bu hududda o‘z kuchlarini mustahkamlab, mahalliy elita va savdogarlar bilan ittifoq tuzish orqali o‘z hokimiyatini o‘rnatganlar.

Markaziy Osiyodagi siyosiy va harbiy bosimlardan so‘ng, Kidariylar o‘zlarining migratsiyasini janub tomon davom ettirib, Hindistonning shimoliy hududlariga yo‘l olishgan. Hindistonning Gandhara va Panjob viloyatlari Kidariylar uchun asosiy maqsadlar bo‘lib, bu yerlar o‘zining boy savdo imkoniyatlari va strategik pozitsiyasi bilan ular uchun qiziqarli bo‘lgan.

Gandhara, hozirgi Pokistonning shimoliy-g‘arbiy qismidagi hudud, qadimgi davrlardan beri Hindiston bilan Markaziy Osiyo o‘rtasidagi savdo va madaniy aloqalar uchun asosiy markaz bo‘lgan. Kidariylar bu hududda o‘z hokimiyatini mustahkamlab, savdo yo‘llarini nazorat qilish orqali o‘z kuchlarini oshirganlar. Panjob hududi esa Hindistonning eng boy agrar viloyatlaridan biri bo‘lib, bu yerda Kidariylar o‘zlari uchun mustahkam iqtisodiy baza yaratganlar.

Numizmatik ma’lumotlar, xususan, Kidara nomli hukmdor nomi tushirilgan tangalar, Gandhara va Panjobda Kidariylarning mustahkam o‘rnashganidan dalolat beradi. Bu hududlarda ularning tangalari keng tarqalgan bo‘lib, bu ularning uzoq muddatli hukmronligini ko‘rsatadi. Kidariylar Hindistonning Kashmir va Shimoliy Hindiston hududlariga ham kirib, u yerda o‘z ta’sirlarini o‘tkazganlar [2. 75-142].

Kidariylarning migratsiya yo‘nalishining muhim qismlaridan biri g‘arbiy yo‘nalish bo‘lib, ular bu yo‘l orqali Eron platosi va Sosoniylar davlati hududlariga harakat qilishgan. G‘arbiy Eron, xususan, Hirot va Marv, Kidariylar uchun strategik

jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu hududlar orqali Buyuk Ipak Yo‘li o‘tgan va bu yo‘llarni nazorat qilish Kidariylar uchun katta iqtisodiy foyda keltirgan.

Kidariylar birinchi navbatda Sosoniylar bilan to‘qnashgan bo‘lsalar-da, keyinchalik ular Eronning shimoliy-sharqiy hududlarida vaqtinchalik siyosiy ustunlikka erishgan. Sosoniylarning ichki ziddiyatlari va tashqi bosimlar davrida Kidariylar g‘arbga harakat qilib, Hirot va Marv kabi shaharlarda o‘z ta’sirlarini o‘rnatganlar [8. 79-93].

Olimlar o‘rtasida Kidariylarning Buyuk Dashtlardan Markaziy Osiyo va Hindistonga bo‘lgan migratsiya yo‘nalishlari bo‘yicha turli fikrlar mavjud. Kidariylar Sharqdan, Pomir tog‘lari orqali, ehtimol Badaxshon hududidan kelgan bo‘lishi mumkin [14. 200-209]. Yoki o‘zlarining ajdodlari Yuechjilar kabi dastlab shimoli-g‘arbga Ili vodiysiga (Xitoy va Qozog‘istonning zamонавиј chegaralarida) ko‘chib o‘tganlar hamda Sirdaryo bo‘ylab Orolga yetib borgan, so‘ngra So‘g‘diyona va Baqtriya va Gandharaga kirib borganlar. Ammo ular hozirgi Tojikiston hamda Qirg‘iziston orqali Baqtriyaga kirib brogan bo‘lishi va undan so‘ng sharqqa va janubga siljigan bo‘lishi mumkin, ammo bu uchunchi yo‘lni hech qanday arxeologik qo‘llab-quvvatlovchi manba mavjud emas.

Xulosa. Kidariylarning Buyuk Dashtlardan migratsiyasi keng miqyosdagи harakat bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida janubiy yo‘nalishda Hindiston tomon va g‘arbiy yo‘nalishda Eron platosiga kengayganlar. Ularning harakati asosan savdo yo‘llarini nazorat qilish, boy agrar hududlarni egallash va siyosiy bo‘shliqlardan foydalanishni ko‘zlagan bo‘lishidan tashqari eng asosiysi bu hududlarda erkin yashab qolish muhim hisoblaganliklari aniqdir. Har ikkala yo‘nalish ham Kidariylar uchun muhim bo‘lib, ularning kuch-qudratini oshirishga xizmat qilgan. Ilmiy manbalarda bu yo‘nalishlar bo‘yicha turli fikrlar mavjud bo‘lsa-da, ularning Hindiston va Eron platosiga bir vaqtida harakat qilganliklari ko‘plab dalillar bilan tasdiqlanadi. Ammo, Sosoniylardek hamda Gupta imperiyasidek davlat uchun muammo tug‘dira olganligi bu davlatning siyosiy va o‘sha paytdagi harbiy qudratini namoyon qiladigan isoboti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alram, Michael, and Deborah E. Klimburg-Salter. Coins, Art, and Chronology: Essays on the Pre-Islamic History of the Indo-Iranian Borderlands. – Vienna: Austrian Academy of Sciences Press, 1999. – P. 498
2. Cribb, Joe, and Nicholas Sims-Williams. “A New Bactrian Inscription of Kanishka the Great.”// Silk Road Art and Archaeology, vol. 4, 1995. – P. 75-142.
3. Dani, A. H. “Eastern Kushans and Kidarites in Gandhara and Kashmir.” In History of Civilizations of Central Asia, vol. 3, edited by B. A. Litvinsky, Paris: UNESCO, 1996. – P. 166–80.
4. Di Cosmo, Nicola. Ancient China and Its Enemies: The Rise of Nomadic Power in East Asian History. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – P. 369
5. Enoki, Kazuo. On the Nationality of the Hephthalites // Memoirs of the Research Department of the Toyo Bunko, vol. 18. – Tokio: Toyo Bunko, 1959. – P. 1-58
6. Fussman, Gerard. “Les Yuezhi et le Koushanshahr”. In Numismatic Evidence of the Kushan Empire, edited by Joe Cribb, – Cambridge: Cambridge University Press, 1985, – P. 65-87.
7. MacDowall, David W. The Kidarite Kingdom in Gandhara and Surrounding Regions // Journal of the Numismatic Society of India, vol. 34. – Hindiston: Numismatic Society of India, 1972. – P. 45-57
8. Sims-Williams, Nicholas. “Further Notes on the Bactrian Inscription of Rabatak, with an Appendix on the Names of Kujula Kadphises and Vima Taktu in Chinese”, In Proceedings of the Third European Conference of Iranian Studies, edited by Nicholas Sims-Williams, Wiesbaden: Reichert Verlag, 1998, P. 79-93.
9. Göbl, Robert. *Sasanian Numismatics* / Translated by Paul Severin. – Braunschweig: Klinkhardt und Biermann, 1971. – P. 97
10. MacDowall, David. Kushan, Kushano-Sasanian, and Kidarite Coins. Spink & Son Ltd., 1996. – P. 424

11. P.B. Golden, Türk Halkları Tarihine Giriş, Otto Harrassowitz, Wiesbaden – 1992, P. 59.
12. Harmatta, Janos. “The Nomadic Migrations in the Late Antique Period.” Acta Antiqua 24, no. 2, 1969. – P. 102-112.
13. Grenet, Frantz. “The Kidarite Dynasty and Its Impact on Central Asian History.” The Silk Road Studies 14, no. 1, 2001. – P. 33-45.
14. Rezakhani, Khodadad. From the Kushans to the Western Turks. In King of the Seven Climes: A History of the Ancient Iranian World (3000 BCE - 651 CE), edited by Touraj Daryaee, 200-209. Cambridge: Cambridge University Press, 2017.

REASONS AND DIRECTIONS OF THE KIDARITE MIGRATION

Annotation. This article examines the migrations of the Kidarites and their influence on Central Asia, India, and Iran. The research focuses on factors such as climate change, military and political pressures, control over trade routes, as well as the movement of nomadic peoples and their impact on new territories. The migration of the Kidarites sheds light on the cultural and political changes in Central Asian history.

Keywords: Kidarites, migration, Central Asia, climate change, trade routes, nomadic peoples, Kushans, Hephthalites, Huns, geopolitical impact.

ПРИЧИНЫ И НАПРАВЛЕНИЯ МИГРАЦИИ КИДАРИТОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются миграции кидариты и их влияние на Центральную Азию, Индию и Иран. Исследование сосредоточено на таких факторах, как изменения климата, военное и политическое давление, контроль над торговыми путями, а также движение кочевых народов и их воздействие на новые территории. Миграции кидариты позволяют проанализировать культурные и политические изменения в истории Центральной Азии.

Ключевые слова: Кидариты, миграция, Центральная Азия, изменение климата, торговые пути, кочевые народы, Кушаны, Эфталиты, Хунну, геополитическое влияние.